# 2021- yilning yanvar-iyul oylari uchun Surxondaryo viloyatida qurilish ishlari




Joriy yilning yanvar-iyul oylarida Surxondaryo viloyatida jami **3 057,8** mlrd. so‘mlik qurilish ishlari bajarilib, o‘sish sur’ati 2020- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **106,1 %** ni tashkil etdi.

## Qurilish ishlari hajmining tarkibi

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo‘yicha shakllanadi.







Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo‘lgan korxona va tashkilotlar tarkibi bo‘yicha bo‘linadi.

***Ma’lumot uchun**: qurilish ishlari hajmi bu – o‘z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta’mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.*

## Qurilish ishlari boʻyicha faoliyat koʻrsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, 2021- yil 1- avgust holatiga koʻra, birlikda

2021- yilning 1- avgust holatiga koʻra, qurilish sohasida korxona va tashkilotlar soni 2 763 tani tashkil etib, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 324 taga oshdi.




Jami qurilish sohasidagi korxona va tashkilotlar soni koʻpayishining asosiy omili bu bino va inshootlar qurish ishlarining oʻtgan yilga nisbatan **110,5 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **64,9 %**), fuqarolik obyektlarini qurish **122,6 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **14,1 %**), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining **116,2 %** ga (jami qurilishdagi ulushi **21,0 %**) oʻsishidir.



# Surxondaryo viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan qurilish korxonalari soni (birlikda)

| | holatiga ko‘ra: | | O‘tgan yilga nisbatan, % da |
|---|---|---|---|
| | 01.08.2020- yil | 01.08.2021- yil | |
| Surxondaryo viloyatii | 2 439 | 2 763 | 113,3 |
| Termiz sh. | 713 | 814 | 114,2 |
| tumanlar: | | | |
| Oltinsoy | 52 | 69 | 132,7 |
| Angor | 140 | 162 | 115,7 |
| Bandixon | 35 | 56 | 160,0 |
| Boysun | 149 | 131 | 87,9 |
| Denov | 142 | 178 | 125,4 |
| Jarqo‘rg‘on | 197 | 231 | 117,3 |
| Qiziriq | 142 | 154 | 108,5 |
| Qumqo‘rg‘on | 151 | 154 | 102,0 |
| Muzrabot | 113 | 118 | 104,4 |
| Sariosiyo | 135 | 150 | 111,1 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| Termiz | 219 | 243 | 111,0 |
| Uzun | 51 | 61 | 119,6 |
| Sherobod | 83 | 103 | 124,1 |
| Sho‘rchi | 117 | 139 | 118,8 |

## Surxondaryo viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan qurilish korxonalari soni, 01.08.2021- yil holatiga ko‘ra (ulushi, % da)




***Ma’lumot uchun:*** *viloyatda soni bo‘yicha eng ko‘p ulushga ega bo‘lgan qurilish korxonalari Termiz sh. (29,5 %), Termiz tumani (8,8 %) va Jarqo‘rg‘on (8,4 %) tumanlarida qayd etildi.*

Joriy yilning yanvar-iyul oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **385,7** mlrd. so‘mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2020- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **93,2 %** ga bajarilgan bo‘lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2020- yilning mos davridagi ko‘rsatkich darajasidan **1,9 %** punktga kamayib, **12,6 %** ni tashkil etdi.

**2021- yilning yanvar-iyul oylarida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi**




***Ma’lumot uchun:** yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko‘p ulushi Sariosiyo tuman (tumandagi jami qurilish ishlari hajmining **57,9** % i yoki 2020- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **85,6 %),** Qumqo‘rg‘on (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **22,9** % i yoki o‘tgan yilning mos davriga nisbatan **128,0** %), va Termiz shahar (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **5,1 % i,** yoki o‘tgan yilning mos davriga nisbatan **119,8** % ) ga to‘g‘ri keldi.*

## Qurilish ishlarining umumiy hajmida kichik korxona va mikrofirmalar ulushi

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2021- yilning yanvar-iyul oylarida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **63,2 %** i to‘g‘ri kelib, 2020- yilning yanvar-iyul oylari ko‘rsatkichiga nisbatan **0,3 %** punktga ko‘paydi. Shuningdek, ular hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2020- yilning mos davriga nisbatan **107,5 %** ni tashkil etgan holda **1 931,5** mlrd. so‘m miqdorida qayd etildi.




*Norasmiy sektor hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari ulushi **24,2** % ni tashkil etdi yoki **740,6** mlrd. so‘m miqdorida qayd etildi. 2020- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **110,6** % ni tashkil etdi.*

## Qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor




Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **21,0** mlrd. so'm yoki Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **3 036,8** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **0,7 %** va **99,3 %** ni tashkil etdi.

## Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari





## 2021- yilning yanvar-iyul oylarida hududlar kesimida mulkchilik shakllari bo‘yicha bajarilgan qurilish ishlari

| | Qurilish ishlari hajmi, mlrd. so‘m | Davlat mulki | | Nodavlat mulk | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | mlrd. so‘m | ulushi % da | mlrd. so‘m | ulushi % da |
| Surxondaryo viloyati | 3 057,8 | 21,0 | 0,7 | 3 036,8 | 99,3 |
| Termiz sh. | 816,1 | 21,0 | 2,6 | 795,1 | 97,4 |
| tumanlar: | | | | | |
| Oltinsoy | 35,2 | - | - | 35,2 | 100,0 |
| Angor | 91,8 | - | - | 91,8 | 100,0 |
| Bandixon | 39,6 | - | - | 39,6 | 100,0 |
| Boysun | 169,4 | - | - | 169,4 | 100,0 |
| Denov | 211,4 | - | - | 211,4 | 100,0 |
| Jarqo‘rg‘on | 184,3 | - | - | 184,3 | 100,0 |
| Qiziriq | 69,7 | - | - | 69,7 | 100,0 |
| Qumqo‘rg‘on | 126,2 | - | - | 126,2 | 100,0 |
| Muzrabot | 182,2 | - | - | 182,2 | 100,0 |
| Sariosiyo | 442,6 | - | - | 442,6 | 100,0 |
| Termiz | 310,6 | - | - | 310,6 | 100,0 |
| Uzun | 123,3 | - | - | 123,3 | 100,0 |
| Sherobod | 187,5 | - | - | 187,5 | 100,0 |
| Sho‘rchi | 67,9 | - | - | 67,9 | 100,0 |

# Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi 2021- yil yanvar-iyul

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 79,2 % i yoki **2 420,3** mlrd. so‘m qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

Yirik qurilish tashkilotlari bo‘yicha yangi qurilish hisobidan **339,4** mlrd. so‘mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 88,0 % ni tashkil etdi

Kichik korxona va mikrofirmalar bo‘yicha yangi qurilish hisobidan **1 399,6** mlrd. so‘m yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 72,5 % ni tashkil etdi.

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **681,3** mlrd. so‘m yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 92,0 % ni tashkil etdi.





# 2021- yilning yanvar-iyul oylarida hududlar kesimidagi qurilish ishlari

| | Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so‘m) | O‘sish sur’ati, % da | Umumiy hajmga nisbatan, % da |
|---|---|---|---|
| Surxondaryo viloyati | 3 057,8 | 106,1 | 100,0 |
| Termiz sh. | 816,1 | 107,6 | 26,7 |
| tumanlar: | | | |
| Oltinsoy | 35,2 | 104,3 | 1,2 |
| Angor | 91,8 | 105,1 | 3,0 |
| Bandixon | 39,6 | 103,7 | 1,3 |
| Boysun | 169,4 | 108,3 | 5,5 |
| Denov | 211,4 | 114,2 | 6,9 |
| Jarqo‘rg‘on | 184,3 | 108,7 | 6,0 |
| Qiziriq | 69,7 | 108,1 | 2,3 |
| Qumqo‘rg‘on | 126,2 | 106,7 | 4,1 |
| Muzrabot | 182,2 | 107,9 | 6,0 |
| Sariosiyo | 442,6 | 97,7 | 14,5 |
| Termiz | 310,6 | 106,5 | 10,2 |
| Uzun | 123,3 | 103,6 | 4,0 |
| Sherobod | 187,5 | 106,9 | 6,1 |
| Sho‘rchi | 67,9 | 108,6 | 2,2 |

# Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha qurilish ishlari

*ulushi, % da*




***Ma’lumot uchun:*** *Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo‘ljallangan hamda yashash uchun mo‘ljallangan binolar qurish bo‘yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.*

## Bino va inshootlar qurilishi

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **1,2 %** ni tashkil etib, 2020- yilning yanvar-iyul oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **1,1 %** punktga ko'paydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2020- yilning yanvar-iyul oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **0,6 %** punktga kamayib, **65,2 %** ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2020- yilning yanvar-iyul oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **0,5 %** punktga kamayib, **33,6 %** ni tashkil etdi.

***ulushi, % da***



# Fuqarolik obyektlarini qurish bo‘yicha qurilish ishlari

Fuqarolik obyektlarini qurish bo‘yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **49,4 %** ni tashkil etdi va 2020- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **1,5 %** punktga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **50,6 %** (**1,5 %** punktga ko‘payish) ni tashkil etdi.

*ulushi, % da*



# Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2020- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **6,1 %** punktga ko‘paydi va **19,0 %** ni tashkil etdi. Qolgan **81,0 %** i kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to‘g‘ri kelib, 2020- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **6,1 %** punktga kamaydi.

***ulushi, % da***



## 2021- yilning yanvar-iyul oylarida tumanlar kesimidagi qurilish ishlari

***mlrd. so'm***






***Ma'lumot uchun:*** *qurilish ishlarining eng yuqori hajm ko'rsatkichi Termiz sh. (816,1 mlrd. so'm), Sariosiyo (442,6 mlrd. so'm), Termiz (310,6 mlrd. so'm), Denov (211,4 mlrd. so'm) tumanlariga to'g'ri keladi.*

**Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi**
**Investitsiya va qurilish statistikasi bo‘limi**

**Tel.: 76 225-65-59**